



## KATTAQO'RG'ON ADABIY MUHITIDA NOJIYNING TUTGAN O'RNI

Eshquvvatova Farangiz Oroljon qizi  
Sharof Rashidov nomidagi SamDU magistranti

**Abstrakt:** Maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Qori Muhammadrasul Zubaydulloho'ja o'g'li Nojiyning Kattaqo'rg'on adabiy muhitida tutgan o'rni haqida fikr-mulohazalar beriladi.

**Key Words:** Nojiy, Kattaqo'rg'on, Kattaqo'rg'on adabiy muhiti, Qori Muhammadrasul Zubaydulloxo'ja o'g'li Nojiy, XX asr, nash'u namo, Kattaqo'rg'onlik ijodkorlar, 1895-yil, 17 yosh, zullisonayn, o'zbek va fors, mumtoz she'riy janrlar, Abdulaziz Zubaydullayev, Atoyi, Mashrab, badiiy meros

Mamlakatimizda bugungi kunda ilm-fan, milliy qadriyatlar va badiiy adabiyotning rivojlanishi borasida sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega"<sup>1</sup> Nojiy ijodidagi janrlarning turlarini chuqur tahlilga tortish hamda bugungi zamonaviy adabiyotga ta'sirini o'rganish bosh vazifalardan biridir.

O'zbek alloma adiblaridan ko'plari o'z asarlari bilan xalq maorifi va madaniyatiga munosib hissa qo'shgan bo'lsalar-da, ularning hikmati-haq nazmlari nizomi mustabid tuzum zamonida e'tirof etilmadi. Bunday elparvar adiblar xalqning o'zligini, buyuk ajdodlar ruhoniyligi, mumtoz ma'naviyat malohati erkin qalb haroratini aks ettirgan ash'ori tufayli quvg'inga olinib, hayotlari ta'qib ostida o'tdi. Shunday adiblardan biri XX asrda Kattaqo'rg'on adabiy muhiti an'alarini munosib davom ettirgan Qori Muhammadrasul Zubaydulloho'ja o'g'li Nojiydir. Sho'rlar davrida ro'shnoqlik ko'rmagan shoir adabiy mersi istiqloq sharofati tufayli fidoyi-jonkuyar avlodlarning intilishlari samarasi o'laroq bugun chin ma'noda dunyo yuzini ko'rmoqda.

Ma'rifatparvar shoir Nojiyning yetuk adib bo'lib kamol topishida Kattaqo'rg'ondagi ma'naviy muhit muhim o'ringa ega bo'ldi. Kattaqo'rg'on qadimdan o'zining yetuk istedodlari bilan shuhrat qozongan edi. So'fi Olloyor, Shavqiy, Miriy kabi ijodkorlar Kattaqo'rg'ondagi ma'naviy-adabiy jarayonlarning tamal toshini qo'ygan bo'lsalar, bu an'ana XX asr boshida Ahqar, Noqis, Hakima kabi adiblar tomonidan yangi bosqichga olib chiqildi. Nojiy bir she'rida Kattaqo'rg'on adabiy muhitida tarbiya ko'rgan, «nash'u namo» topgan yana bir qator ijodkorlar nomlarini ehtirom bilan tilga oladi :

Homidu Xokiyniyu To'bni jon mag'zi aro  
Tarbiyat aylab chiqarg'an Kattaqo'rg'onim mani

<sup>1</sup> SHavkat Mirziyoyev: «Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi» // <https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-san'at>



Volaning o'sgan yeri ham Kattaqo'rg'on tobei,  
Desam arzir Yangi qo'rg'on Kattaqo'rg'onim mani.  
Ul Dabiriy tondi Payshanbe aro nash'u namo,  
Anga ham bo'lgan nigohbon Kattaqo'rg'onim mani.  
Tojikiston ichra bormu Kattaqo'rg'on yanglig' shahr?  
Obro'yi O'zbekiston Kattaqo'rg'onim mani.

XX asr ibtidosida mazkur salaflarning ijodiy maktablarini Mahdiy, Vidoiy kabi ijodkorlar zur mahorat bilan namoyish etgan bo'lsalar, Nojiy, Noqis, Homid, Salohiy kabi qalamkashlar mumtoz an'analarni keyingi avlodga yetkazishda katta xizmat ko'rsatdilar. Bu ijodkorlarni nafaqat mushtarak makon- Kattaqo'rg'on, balki o'zbek she'riyatidagi mumtoz an'analar shakli shamoyili bilan birga zamon zayli aks etgan mavzular ham birlashtirdi. Muhammadrasul Zubaydulloho'ja o'g'li Nojiy 1895 yilda Kattaqo'rg'on shahrining Mahalla guzarida ziyoli oilada dunyoga keldi. Bolalik davrida to'liq xat-savod chiqarib 17 yoshida Buxoradagi Mir Arab madrasasida tahsilni davom ettirdi. Shoir o'z tarjimai holida shunday keltiradi: «Buxaro shahrida 4-5yil madrasada o'qib anchagina zehnim va fikrim toza bo'lgani uchun sa'yim zoe bo'lmay, yosh talabalar va ustodlar ko'zilariga yaxshi ko'runub erdim. Fors tilida ancha mahorat paydo qildim. Chunki men yoshligimdan adabiyotga ishqim zur erdi. Ulug' shoirlarning yash she'rlarini ko'rganimda qiziqib o'qir edim, Alarg'a havoskorlig' qilib goho o'zbek tilida oz-oz bayt yozib, ba'zan Salohiddin Mahdunga va ba'zan Mahdiy va Homidlarg'a isloh qildurur erdim. Bir-ikki bor men uyolsam ham Noqis domlaga ko'rsatgan edim. Ul zot meni targ'ib qilib, garchi o'xshovsiz bo'lsa ham binoyi yozibsana deb meni xursand qilar erdilar».

Urushdan keyingi yillarda Kattaqo'rg'onga qaytishga muvaffaq bo'ldi, ammo umrining oxirigacha og'ziga qulf osgan holda yashashga majbur bo'ldi. Shoirlik uning kasbi emas, qalb amri bo'lgani tufayli badiiy ijodni tark etmadi. Hayotlik paytida u she'rlarini chop ettirmagan, uning ijodidan farzandlari, yaqinlari va shogirdlaridan boshqalar xabardor emas edilar. Uning badiiy merosi farzandi ma'rifatparvar inson Abdulaziz Zubaydullayev qo'lida saqlanib, mustaqillikdan so'ng ommaga ma'lum qilindi. Xususan, 1996-yili "Ummon" nomi ostida dastlabki namunalari chop etildi.

Nojiy aruz vaznida, shuningdek, zullisonayn, ya'ni ikki-o'zbek va fors tilida mahorat bilan ijod qilgan iste'dod sohibidir. Shoir mumtoz she'riyatning g'azal, muxammas, musaddas, tarje'band, to'rtliklar, fardlar, muammo, marsiya, ta'rix, masnaviy, munojot kabi janrlarida ijod qilib, ular orasida avlodlariga pand-nasihatlar, do'st-u yorlariga, yaqinlariga yozilgan tabriknomalar, maktublar, marsiyalar ham o'rin olgan.

G'azal janridagi she'rlar shoir adabiy merosida muhim o'rin egallaydi. Ular orasida an'anaviy oshiqona, orifona she'rlardan tashqari kishilarni iymon-e'tiqodga da'vat qiluvchi pandnoma ruhidagi yirik hajmli she'rlar, hajviy-mutoyiba mazmunidagi lirik asarlar ham mavjud. Nojiy o'tmish she'riyatining mashhur ijodkorlari an'analaridan mohirlik bilan foydalanganiga, ular uslubi va adabiy yo'nalishlariga mos ravishda asarlar yozganiga guvoh bo'lamiz. Shoirning ushbu matlali she'ri:

Do'stlar, yorimni ko'rdim, suv labida o'lturur  
Mavji husni suvga tushsa, har zamon suv talpinur.



Atoyining:

UL sanamkim, suv yaqosinda paridek o'lturur,

G'oyat nozikligidan suv bilan yutsa bo'lur,-

Bayti bilan boshlanuvchi mashhur g'azali ta'sirida yozilganligini sezish qiyin emas.

Adib asarlari orasida otashqalb shoir-Mashrab g'azallari ta'sirida sodda, ravon va o'ynoqi vaznlarda yozilgan bir qancha she'rlar ham bor. Jumladan, Nojiyning:

Qaysi mahvashni seningdek orazi toboni bor?

Qaysi dilbarni meningdek oshiqi hayroni bor?-

bayti bilan boshlanuvchi xalqona ohangda bitilgan g'azali Mashrabning:

Qaysi parining sen kabi dilbari gulzori bor?

Qaysi chamanning gullarin tiyri mijangcha xori bo?-

Matlali g'azaliga nazira tarzida ijod qilingan. Mashrab lirikasi Nojiy she'riyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatganini uning nafaqat shaklan o'xshash she'rlaridan, balki mohiyati monand misralaridan ham anglash mumkin.

Nojiy uning taxallusi bo'lib ma'nosi "najot istovchi" dir. Nojiy umrining oxiriga qadar Kattaqo'rg'on shahrida ilohiy ilmlar va badiiy ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Shu bilan bir qatorda shahar jome' masjidining xatib-imomi vazifasini bajarib keldi. 1989-yilda 95 yoshida vafot etgan.

#### REFERENCES:

1. Shavkat-Mirziyoyev: "Adabiyot,san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq butun insoniyat bezavol yashaydi" //https://xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev adabiyot-san'at
2. A.Zubaydullayev, P. Zubaydullayev "Nojiy Ummon: Tanlangan she'rlar" "Zarafshon" nashiryoti, 1996 yil, 104 bet
3. Devon/Nojiy. To'plab nashrga tayyorlovchi Po'lathoji Muhammadamin o'li Zubaydullayev;mas'ul muharrir D.I.Salohiy.-Toshkent:Mumtoz so'z, 2014.-208b.
4. "Nazm bo'stoni" (Zulmatda chaqnagan ziyo) Matn:she'rlar/Qori Muhammadrasul Zubaydullaxo'ja o'g'li Nojiy.-Toshkent:Akademnashr,2017.-352b.